

Navoiy asarlari hamda ularda qo'llangan janrlarning umumiy miqdori

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/navoiy-asarlari-janrlarining-umumiy-miqdori>

Alisher Navoiydan buyuk meros boqiy qoldi. Ko'p mutaxassislar uning asarlari sonini 30 ga yaqin deb ko'rsatishadi: *"O'ttizga yaqin (?) nazmiy va nasriy asarlarida yigirma olti mingdan ortiq so'z qo'llagan ulug' shoir adabiy o'zbek tilining grammatik qurilishi xususida ham e'tiborga loyiq fikrlarni o'rtaga tashlagan"* (6).

Bu – mantiqqa tamoman zid hisob-kitob. Chunki logann Gyote 1680 dan oshiq, Aleksandr Pushkin 826, Sergey Yesenin 527, Mixail Lermontov 400 dan ortiq, Vilyam Shekspir 38 pyesa, 154 ta sonet yozgan.

Nahotki, ulug' bobomiz shuncha kam asar bitgan bo'lsa?!

Bu – *"asar"* so'zini to'g'ri qo'llamaslikdan kelib chiqqan xato. *"O'zbek tilining izohli lug'ati"* 5 jildligida asli arabcha bo'lgan *"asar"* kalimasining *"alomat"*, *"belgi"*, *"nishon"* ma'nolarini anglatishi aytilib, uning bir ma'nosi *"ijodiy mehnat mahsuli"* (1; 105) ekani qayd etiladi. Modomiki, shunday ekan, axir, bor-yo'g'i ikki satrdangina iborat fard ham – bir yaxlit asar-ku.

Filologiya fanlari doktori, professor Bahrom Bafoyev jami 24 banddan iborat ro'yxat keltiradi-da, shunday deb yozadi: *"Buyuk adibning eski o'zbek poetik tilida yuqoridagi asarlarida takrorlarsiz jami 26035 ta so'z uchrashligi ma'lum bo'ldi"* (2; 93).

To'g'ri, bu sanoqdagi *"Xamsa"*ning 5 dostoni, *"Nasoyim ul-muhabbat..."*, *"Tarixi anbiyo va hukamo"*, *"Xamsat ul-mutahayyirin"*, *"Holoti Pahlavon Muhammad"*, *"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"*, *"Tarixi muluki Ajam"*, *"Mahbub ul-qulub"*, *"Vaqfiya"*, *"Muhokamat ul-lug'atayn"*, *"Mezon ul-avzon"*, *"Lison ut-tayr"*, *"Majolis un-nafois"* – haqiqatan ham, asar. Ular 17 ta. Qolgan 7 nomdagi narsa asar emas, to'plam. Ularning har biri bir nechadan asarni o'z ichiga qamrab olgan-ku. Bular – *"G'aroyib us-sig'ar"*, *"Badoe' ul-vasat"*, *"Navodir ush-shabob"*, *"Favoyid ul-kibar"* devonlari, *"Nazm ul-javohir"*, *"Arbain"*, *"Munshaot"* to'plamlari.

Agar gap shoirning bir muqovada jamlangan kitoblari haqida borayotgan bo'lsa, ehtimol, 30 tacha bo'lar. Chunki shoirning 9 (muxlislari 1466-yili tuzgan, ilmda *"Ilk devon"* nomini olgan devon, 1471-yili Sherozda tuzilgan, ilmda *"Oqquyunli muxlislar devoni"* (qarang: 7), o'zi tuzgan *"Badoe' ul-bidoya"* va *"Navodir un-nihoya"* devonlari, *"Xazoyin ul-maoniy"*ga kirgan *"G'aroyib us-sig'ar"*, *"Navodir ush-shabob"*, *"Badoe' ul-vasat"*, *"Favoyid ul-kibar"* devonlari, va fors-tojik tilidagi *"Devoni Foniy"*) devoni, tarjima yo'li bilan yaratilgan 2 she'riy to'plami (*"Arba'in"*, *"Nazm ul-javohir"*), jami 6 (*"Xamsa"*ga kirgan *"Hayrat ul-abror"*, *"Farhod va Shirin"*, *"Layli va Majnun"*, *"Sab'ayi sayyor"*, *"Saddi Iskandariy"* hamda *"Lison ut-tayr"*) dostoni, 2 (shoirilar haqidagi *"Majolis un-nafois"* va shayxlar haqidagi *"Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat"*) tazkirasi, 3 (*"Xamsat ul-mutahayyirin"*, *"Holoti Pahlavon Muhammad"*, *"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"*) manqibasi, til va adabiyot nazariyasi bilan bog'liq 3 (*"Mufradot"*, *"Mezon ul-avzon"*, *"Muhokamat ul-lug'atayn"*) risolasi, yana 3 (*"Mahbub ul-qulub"*, *"Vaqfiya"*, *"Munshaot"*) nasriy-badiiy va ilmiy-tarixiy asari mavjud. Shularni nomma-nom sanasak, haqiqatan ham, 30 ga yaqinlashadi, aniqrog'i, 29 ta bo'ladi.

*"Xazoyin ul-maoniy"*dagi mavjud to'rt devonning har birida g'azalning o'zidan naqd 650 tadan, jami 2 ming 600 ta bor-ku. *"Devoni Foniy"*da jami 556 g'azal mavjud. *"Xazoyin ul-maoniy"*ga kirmay qolgan g'azallarini hisobga olmaganda ham, o'zi devonlariga kiritgan g'azallarining umumiy soni 3 ming 156 tani tashkil etyapti-ku.

Shoirning o'zi *"Lison ut-tayr"*da nazm va nasrdan iborat merosi 100 ming bayt atrofida ekanini aytib

o'tgan:

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos

Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos (3; 295).

Shoir merosi haqida gap ketar ekan, eng muhim ikki jihatni alohida qayd etib o'tish lozim.

Birinchidan, boshqa shoir va yozuvchilarimizga qaraganda, Navoiyning o'zi merosini puxta-pishiq holda tartibga solib, kitobat qildirib, kelajak avlodlarga qoldirib ketgan. Chunki umrining oxirlarida yozilgan "*Muhokamat ul-lug'atayn*"da o'zi sanagan asarlaridan bizgacha yetib kelmagani yo'q.

Ikkinchidan, buyuk mutafakkirning butun merosi 1987 - 2003-yillar mobaynida "Fan" nashriyotida 20 jild sifatida to'liq chop etildi.

Modomiki, bugun qo'limizda ulug' shoir va mutafakkir asarlarining mukammal nashri mavjud ekan, nega uning asarlari sonini aniq qilib ko'rsatish mumkin emas?!

Juda mumkin-da. Keling, bu ishni orqaga tashlamaylik-da, hozirning o'zida masalani hal qilib qo'ya qolaylik.

20 jildning birinchi va ikkinchi jildlaridagi lirik asarlarning hammasi - 3 - 6-jildlarni tashkil etgan "*Xazoyin ul-maoniy*"ga kirgan to'rt devonda bor. Shuning uchun sanoqni 3-jilddan boshlaymiz:

3-jild: "*G'aroyib us-sig'ar*" - 650 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas, 1 tarji'band, 1 masnaviy, 50 qit'a, 133 ruboiy, ya'ni jami - 839 asar.

4-jild: "*Navodir ush-shabob*" - 650 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas, 1 tarji'band, 1 tarkibband, 50 qit'a, 52 muammo, ya'ni jami -758 asar.

5-jild: "*Badoe' ul-vasat*" - 650 g'azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 2 musaddas, 1 tarji'band, 1 qasida, 60 qit'a, 10 chiston (lug'z), 13 tuyuq, ya'ni jami -740 asar.

6-jild: "*Favoyid ul-kibar*" - 650 g'azal, 1 mustazod, 2 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 soqiynoma, 50 qit'a, 86 fard, ya'ni jami -793 asar.

7-jild: "*Xamsa*"dagi "*Hayrat ul-abror*" dostoni, ya'ni 1 asar.

8-jild: "*Xamsa*"dagi "*Farhod va Shirin*" dostoni, ya'ni 1 asar.

9-jild: "*Xamsa*"dagi "*Layli va Majnun*" dostoni, ya'ni 1 asar.

10-jild: "*Xamsa*"dagi "*Sab'ayi sayyor*" dostoni, ya'ni 1 asar.

11-jild: "*Xamsa*"dagi "*Saddi Iskandariy*" dostoni, ya'ni 1 asar.

12-jild: "*Lison ut-tayr*" dostoni, ya'ni 1 asar.

13-jild: "*Majolis un-nafois*" tazkisasi, ya'ni 1 asar.

14-jild: "*Mahub ul-qulub*", "*Munshaot*" to'plami (har biri alohida-alohida bitilgan 103 maktub), "*Vaqfiya*" asarlari, ya'ni jami - 105 asar.

15-jild: "*Xamsat ul-mutahayyirin*" manoqibi, "*Holoti Sayyid Hasan Ardasher*", "*Holoti Pahlavon Muhammad*" holotlari, "*Nazm ul-javohir*" to'plami (255 ruboiy), ya'ni jami - 258 asar.

16-jild: "*Muhokamat ul-lug'atayn*", "*Mezon ul-avzon*", "*Tarixi anbiyo va hukamo*", "*Tarixi muluki Ajam*", "*Arba'in*" (40 qit'a), "*Siroj ul-muslimin*", "*Munojot*", "*Risolai tiyr andoxtan*" (bu risola usluban Alisher Navoiy yozgan asarga mutlaqo o'xshamaydi, shuning uchun uning shoir asarlari sirasiga kiritilgani -

bahsli) asarlari, ya'ni jami - 47 asar.

17-jild: *"Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat"* tazkirasi, ya'ni 1 asar.

18-jild: *"Devoni Foniy"* (boshlanish qismi) - 270 g'azal.

19-jild: *"Devoni Foniy"* (davomi) - 286 g'azal.

20-jild: *"Devoni Foniy"* (davomi) - 1 musaddas, 1 marsiya, 64 qit'a, 72 ruboiy, 16 ta'rix, 266 muammo, 9 lug'z (chiston) (Bu hisob-kitoblar *"Devoni Foniy"*da jami 985 asar borligini ko'rsatyapti); *"Sittai zaruriya"* to'plami (6 qasida - *"Ruh ul-quds"*, *"Ayn ul-hayot"*, *"Tuhfat ul-afkor"*, *"Qut ul-qulub"*, *"Minhoj ul-najot"*, *"Nasim ul-xuld"*), *"Fusuli arbaa"* to'plami (4 qasida - *"Saraton"*, *"Xazon"*, *"Bahor"*, *"Day"*), *"Mufradot"* asari, ya'ni jami - 440 asar.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning o'zi kitoblariga kiritgan asarlari umumiy soni 4 ming 544 (1 asarni u yozgani bahsli ekani hisobga olinsa, 4 ming 543) tani tashkil etadi.

*"Mukamaal asarlar to'plami"*ning 20-jildiga *"Rasmiy devonlarga kirmagan she'rlar"* ham berilgan. Ularning soni quyidagicha: 35 g'azal, 4 qit'a, 1 marsiya, 1 taxmis, bulardan tashqari, turli manbalarda Alisher Navoiyga nisbat berilgan 14 bayt ilova qilingan. Agar bu ilovalardagi faqat bitgan 41 asarnigina qo'shganda ham, umumiy raqam 4 ming 585 tani tashkil etadi.

Demak, ishonch bilan ayta olamizki, Alisher Navoiy 60 yilga yaqin umri mobaynida 4 ming 585 ta asar yaratgan!

Bu yerda kelajakda aniqlik kiritilishi zarur bo'lgan ikki nozik nuqta - bor. Birinchisi - shuki, *"Nazm ul-javohir"*dagi she'rlar - arabiydan, *"Arbain"*dagi she'rlar - forsiydan tarjima qilingan asarlar. Ammo navoiyshunosligimizda hali ular qay darajadagi yoki qaysi tipdagi tarjimalar ekani ilman aniqlashtirib berilganicha - yo'q. Ikkinchisi - shuki, bu sohibi qalamning nasr va nazm aralash qilib bitilgan asarlaridagi she'riy parchalarni ham alohida, ya'ni mustaqil asarlar hisoblash mumkinmi yoki yo'qligiga aniqlik kiritish - lozim. Qizig'i, ular orasida ham birovlarining yo nazmiy, yo nasriy fikrlarini she'rga solish hodisasi - bor. Bu she'riy parchalarga asos bo'lgan manbalarning katta qismi esa yo arabiy, yo forsiy matn bo'lgan. Demak, bu yerda ham tarjimaviylik hodisasi yuz bergan.

Hozircha, biz bu she'riy parchalarni mustaqil asarlar tarkibiga kiritmadik.

Insonning tabiati - qiziq, hammaning xotirasi ham unchalar ishonchli bo'lavermaydi. Agar, mabodo, birovga ikkita ma'lumot aytsangiz-u, keyin tekshirib ko'rsangiz, ana shu ikki axborotdan bittasi bu odamning yodida mustahkam qoladi-yu, u ikkinchisini unutadi. Xo'sh, qaysi biri esda qoladi? Muayyanrog'i. Qanday ma'lumot muayyan hisoblanadi? Avvalo, raqami bori.

Deylik, Toshkentdan Buxoroga avtomobilingizda jo'nayapsiz. Yo'l-yo'lakay Samarqandda - Mirzo Ulug'bek rasadxonasi bekatida bir og'ayningiz siz bilan ko'rishib, kitobini berib yubormoqchi. Unga qo'ng'iroq qilib, ikki ma'lumotdan iborat axborotni yetkazasiz:

- Soat beshlarda Samarqanddan o'tsak kerak. Bulung'urga borganimizda yana qo'ng'iroq qilaman, - deysiz. Maqsadingiz - aniq: birodaringiz bir daqiqa ham ovora bo'lmasin, Bulung'urga yetganda u uyidan chiqsa ham, bemalol o'z vaqtida bekatga boradi.

Ana, ko'rasiz, birodaringiz besh deganda bekatda bo'ladi. Chunki u ikki axborotdan ichida raqami borligini qattiq "tutib" oldi, ikkinchi axborot bilan hisoblashib ham o'tirmadi. Holbuki, siz G'allaorolda to'xtab, bemalol bir soat ovqatlandingiz, Mirzo Ulug'bek bekatiga mo'ljaligingizdagi beshlarda emas, oltidan ham o'tganda yetib keldingiz, deylik. Og'ayningiz qor yog'ib turgan sovuq havoda naqd bir yarim soat tik turib sizni kutdi. Ayb - o'zida: *"Alloh"*ini eshitgan-u, *"-berdi"*sini eshitmagan.

Muqaddas dinimizdagi aqida shundayki, Allohning sherigi - yo'q. Qozi bir mahbusdan:

- *Oting nima?* – deb so‘rabdi. U:
- *Alloh...* – deb boshlagan ekan, qozi:
- *Jallod!* – deb bo‘kiribdi. Jallod yetib kelgani bilan mahbusning kallasini judo qilishga buyuribdi. Chunki u o‘zini “*Alloh*” deb hisoblab, kofir bo‘ldi.

Holbuki, bu kimsaning oti “*Allohberdi*” ekan. “...*Berdi*”sini aytib ulgurmadbi badbaxt.

Gapni bunchalar uzoqdan olib kelayotganimizning sababi – bor.

Navoiy lirikasini tadqiq qilgan Yoqubjon Is‘hoqov shoirning “*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan 4 devonida jami 16 lirik janrga oid she‘rlarini kiritganini qayd etgan (4; 10). Shu-shu ko‘plar matbuot, radio va televideniye orqali chiqishlarida, turli uchrashuvlarda ziyolilar bilib-bilmay: “*Navoiy 16 janrda ijod qilgan*”, – deydigan bo‘lib qoldi. Birgina misol bilan cheklanamiz: “*Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan*” (8). Bu jumladagi “*adabiy*” so‘zi o‘rniga “*lirik*” so‘zi qo‘llansa edi, fikr to‘g‘ri bo‘lar edi.

Shu axborotni gazeta yoki jurnalda o‘qisangiz ham, radio yoki televideniye orqali eshitsangiz ham, uning mutlaqo xato ekanini muallif yoki so‘zlovchiga ham, eng yomoni ming-ming o‘quvchi yoki tinglovchiga ham ayta olmaysiz. Oqibatda o‘qiganlaru eshitganlar ongida shu asossiz fikr muhrlanib qolaveradi. Bu xatoni tuzatish – kerak.

Keling, yaxshisi, Alisher Navoiy aynan nechta janrda asarlar yaratganini aniqlashtirib olaylik. Axir, bu masalani aniq-tiniq aniqlash uchun qo‘limizda uning “*Mukammal asarlar to‘plami*” – bor, demak, sanash unchalar mushkul ish emas.

“*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan devonlardagi jami 16 janr – quyidagilardan iborat: g‘azal, mustazod, muxammas, tarji‘band, (lirik) masnaviy, qit‘a, ruboiy, tarkibband, muammo, musaddas, qasida, chiston (lug‘z), tuyuq, musamman, soqiynoma, fard. Bu sanoqda janrlarni “*Xazoyin ul-maoniy*” devonlarida uchragan tartib bo‘yicha keltirdik.

Ma‘lumki, shoir fors-tojik tilida “*Foniy*” taxallusi bilan bitilgan lirik asarlarini “*Devoni Foniy*”ga jamladi. Bu to‘plamda “*Xazoyin ul-maoniy*”ga kirgan devonlarda uchramaydigan 2 ta lirik janr mavjud. Bular – marsiya bilan ta‘rix.

Shuning uchun, *Navoiy turkiy va forsiy tilda jami 18 lirik janrda ijod qilgan*, deb hisoblashimiz zarur.

19-janr – debocha. Shoir o‘zi tuzgan dastlabki devon bo‘lmish “*Badoyi’ ul-bidoya*”ga hamda “*Xazoyin ul-maoniy*”ga alohida-alohida “*Debocha*”lar bitadi.

20-janr – munojot. Ulug‘ mutafakkirning navoiyshunoslikda “*Munojot*” nomi bilan mashhur bo‘lgan ixcham nasriy asari janrini shunday belgilash mumkin. Aslida, Navoiy lirik asarlari orasida ham munojot-g‘azal, munojot-ruboiy va boshqalar bor, olti dostoni boshlanish qismlarida ham munojot boblar mavjud. Lekin ilmda dastlab shoirning o‘zi tuzgan “*Kulliyot*”i uchun maxsus so‘zboshi sifatida yozilgan deb qaralgan, keyinroq esa Allohga tavba-tazarru va iltijolar qilish ilinjida maxsus bitilgan asar sifatida baholangan bu nasriy asar janrini “*munojot*” belgilashdan boshqa yo‘l yo‘q qolmadi.

21-janr – doston. “*Xamsa*”dagi besh asar (“*Hayrat ul-abror*”, “*Farhod va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Saba’yi sayyor*”, “*Saddi Iskandariy*”) hamda “*Lison ut-tayr*” – doston. Ularni “*masnaviy*” deb atash ham rasm bo‘lgan. Biroq biz bugun “*Xazoyin ul-maoniy*”da ham juftqofiyaga asoslangan baytlardan iborat 1 lirik masnaviy, ya‘ni Navoiyning ustozlaridan biri Sayyid Hasan Ardasheriga yo‘llagan she‘riy maktubi o‘rin olgan. Agar keyin sanaganimiz olti liro-epik asarni ham “*masnaviy*” desak, ularni lirik masnaviy bilan bir janr deb hisoblashimizga to‘g‘ri keladi va bu ilman xato bo‘lur edi. Shuning uchun biz bu olti asar janrini “*doston*” deb hisoblash tarafdorimiz. Bu olti dostonga nisbatan “*masnaviy*” atamasini ham qo‘llashga hech kim qarshi emas. Ammo bu janrni emas, she‘riy shaklni bildirib kelishini unutmash kerak. Janrni belgilashda esa, shakliy xususiyatlardan tashqari, mazmun jihati ham jiddiy hisobga olinadi.

22-janr – tazkira. Navoiy 2 ta tazkira yaratgan. “*Majolis un-nafois*” – shoirlar va “*Nasoyim ul-muhabbat*

min shamoyim ul-futuvvat" – shayx-avliyolar haqidagi tazkira.

23-janr – ijtimoiy-publitsistik pandnoma. *"Mahbub ul-qulub"* – shu janrda bitilgan. Pandona yo'nalishiga ko'ra, u tip jihatidan Kaykovusning *"Qobusnoma"*, Sa'diyning *"Guliston"*, Jomiyning *"Bahoriston"* asarlariga o'xshasa ham, bunda ijtimoiy-publitsistik ruh ustunlik qiladi. Shuning uchun uning janri shu tarzda belgilandi.

24-janr – maktub (insho). *"Insho"* so'zining tilimizda ta'lim jarayonida biron-bir mavzuda bitiladigan ijodiy ishni anglatishini ham hisobga olsak, bu janrni ifodalashda *"maktub"* istilohi ma'qulroqdek ko'rinadi. Shoirning o'zi turli zamondoshlariga bitgan 103 maktubini *"Munshaot"* nomi bilan alohida to'plam qilgan.

25-janr – holot-manoqib. *"Xamsat ul-mutahayyirin"* manoqibi, *"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"*, *"Holoti Pahlavon Muhammad"* holotlari shu toifaga kiradi. Muayyan bir tarixiy shaxs haqida bitilgan bu uch asar musulmon Sharqi adabiyotidagi an'anaviy manoqiblarga aynan o'xshamaydi. Shuning uchun ulardan ikkitasi nomiga muallifning o'zi *"holot"* so'zini qo'shgan. Lekin ularda manoqiblik xususiyatlari ham yo'q emas. Shularni hisobga olganda, bu janrni, shartli ravishda, *"holot-manoqib"* deb atadik.

26-janr – ilmiy risola. Ikki (forsiy va turkiy) til qiyosi va turkiy til fazilatlarini xususidagi *"Muhokamat ul-lug'atayn"*, aruz vazni nazariyasiga bag'ishlangan *"Mezon ul-avzon"* hamda fors-tojik tilida yozilgan muammo janri nazariyasidan iborat *"Mufradot"* asari aynan shu janrning tipik namunalari hisoblanadi.

27-janr – tarixiy risola. Aslida, tarix ham ilm va Navoiyning *"Tarixi anbiyo va hukamo"* hamda *"Tarixi muluki Ajam"* asarlarini ham ilmiy risolalar tarkibiga kiritish mumkindir. Biroq bu yerda tarix buyuk badiiy qalam sohibi tarafidan bitilgan. Shuning uchun unda voqea-hodisalar bayoni oddiy ilmiy tarixlardan keskin farq qiladi. Shuning uchun bu ikki asar janrini *"tarixiy risola"* tarzida belgilash lozim ko'rildi. Nomlaridan ham anglashilib turganidek, *"Tarixi anbiyo va hukamo"*da payg'ambarlar va hakimlar, ya'ni faylasuf donishmandlar hayoti haqida ma'lumotlar berilib, ularning e'tiborli so'zlaridan namunalar keltiriladi hamda *"Tarixi muluki Ajam"*da esa Eron podshohlari tarixi yoritiladi, bu tarix muayyan tizimga solinadi. Bu ikki asarini Navoiyning o'zi bir umumiy nom ostida birlashtirib, *"Zubdat ut-tavorix"* deb ham ataydi (*qarang: 5; 26*).

28-janr – vaqfnoma. Navoiyning 40 yoshida, ya'ni 1481-yili bitgan *"Vaqfiya"* asari janri shu tarzda belgilandi. Chunki bu asar shu qadar o'ziga xoski, mohiyatan uni boshqa janrga qo'shib bo'lmaydi.

29-janr – nazmiy risola. *"Siroj ul-muslimin"* asarini shunga kiritish kerak. Chunki bu asar amalda shariat tartib-qoidalari haqidagi risola. Faqat u nazmiy yo'l bilan bitilgan, xolos. Bu asarda nazm bor, lekin u she'r emas. She'rda shuur bo'lishi – kerak.

30-janr – nazmiy tarjima. *"Arba'in"* bilan *"Nazm ul-javohir"*ni shu toifaga kiritish kerak. Hazrat Abdurahmon Jomiy Muhammad(s. a. v.)ning 40 hadisini tanlab, fors-tojik tilida nazmiy yo'l bilan 40 qit'a tarzida qayta yaratadi. Navoiy piri va ustozidan ruxsat so'rab, shu nazmiy matnni o'zbek tiliga tarjima qiladi. *"Nazm ul-javohir"*ning yuzaga kelishi ham shunga o'xshaydi. Undagi 255 ruboiy chahoryorlardan biri, to'rtinchi xalifa bo'lmish Hazrat Alining hikmatli so'zlari asosida bitilgan.

31-janr – taxmis. Aslida, *"muxammas"* va *"taxmis"* so'zlari bir ma'noni, ya'ni har bandi besh misradan tashkil topgan, qofiyalari *aaaaa, bbbba, vvvva* va hokazo tarzda bo'lgan lirik janrni bildiradi. Biroq hozirgi adabiyotshunosligimizda bu janrning bir muallif tarafidan bitilgan ohoriy (original) namunalarini *"muxammas"*, bir muallifning g'azali baytlari oldidan o'sha misralarga shaklan va mazmunan mos ravishda 3 satrdan qo'shish asosida bitilgan namunalarini esa *"taxmis"* deyish rasm bo'la boryapti. Shunga ko'ra, biz ham taxmisni alohida janr sifatida ajratdik. Navoiy ijodida taxmisning 2 tagina namunasi uchramiz. Birinchisi – *"Xazoyin ul-maoniy"*ning ikkinchi devoni bo'lmish *"Navodir ush-shabob"*dagi Lutfiyning:

Ko'kdadur har dam fig'onim ko'rgali sen mohni,

Da'viyi mehringga tonuq tortadurmen ohni, -

deb boshlanadigan g'azaliga bog'langan. Ikkinchisi "Mukammal asarlar to'plami"ning 20-jildi "Rasmiy devonlarga kirmagan she'rlar" qismida berilgan Husayniyning:

G'unchayi xandon borib, ko'nglumda qoldi xor-xor,

Tinmag'ur jonimg'a onsiz dunyada bori ne bor?! -

matlasi bilan boshlanadigan g'azaliga bog'langan taxmis.

20 jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ga kiritilgan "Risolayi tiyr andoxtan" asarining tili va uslubi tahlili uning Navoiy qalamiga mansub ekaniga shubha tug'diradi uchun uning janrini belgilashga urinib o'tirilmadi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy butun ijodida jami 31 adabiy-ijodiy janrda asar yaratgani ayonlashdi.

Shuning o'zi ham - ba'zi olimlarimiz o'ylamay-netmay keltirgan raqamdan ikki barobar ko'p.

Sultonmurod OLIM,

filologiya fanlari nomzodi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v. b., O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Kitoblar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. J. 1. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. *B a f o y e v B.* Navoiy ummonidan dur izlab... - Buxoro: Buxoro, 2022.
3. *Alisher N a v o i y.* Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 12. - Toshkent: Fan, 1996.
4. *I s h o q o v Yo.* Navoiy poetikasi. - Toshkent: Fan, 1983.
5. *Alisher N a v o i y.* Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 16. - Toshkent: Fan, 2000.

Jurnal va gazetalar:

6. *D a d a b o y e v H.* Buyuk tilshunos. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2016-yil, 5-fevral.
 1. "Oqquyunli muxlislar devoni"ning Tokio nashri (*Adabiyotshunos Aftondil Erkinov bilan jurnalist Mahmud Sa'diy suhbat*). // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2016-yil, 5-fevral.
 2. *S a t t o r o v Sh.* Mir Alisher Navoiy haqida 15 ma'lumot, 10 hikmat va bir rivoyat. // Janob, 2017-yil, 1-son.